

S.B.Maxkamova

Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti

Abduraxmonova Zulayxo

TDPU magistr

saodat_mahkamova@mail.ru

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING TASVIRIY SAN'AT ASARLARIGA TA'SIRINING DOLZARB MASALALARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada shoh va shoir, adib, olim Zahiriddin Muhammad Boburning tasviriy san'at asarlariga ta'siri, rassom, hattotlarning, ilm va ma'rifatning rivojlanish jarayonlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Zahiriddin Muhammad Bobur, portret, shoir, rassom, shoh, tahlil, badiiylik, badiiy tahlil.

Аннотация: В статье приведены мысли и комментарии по методике развития логического мышления учащихся при рассмотрении на занятиях портрета известного государственного деятеля, талантливого поэта, писателя, историка, переводчика Захиридина Мухаммада Бабура.

Ключевые слова: Захириддин Мухаммад Бабур, Андижан, Индия, патриотизм, шах и поэт, портрет «Захиридина Мухаммада Бабура», символический анализ.

Annotation: The article contains thoughts and comments on the methodology of developing students' logical thinking while observing the portrait of the famous statesman, talented poet, writer, historian, translator Zahiriddin Muhammad Babur in classes.

Keywords: Zahiriddin Muhammad Babur, Andijan, India, patriotism, horn and poet, portrait of Zahiriddin Muhammad Babur, symbolic analysis.

Zahiriddin Muhammad Bobur O'rta asr Sharq madaniyati, adabiyoti va she'riyati, tasviriy san'at, amaliy san'atida o'ziga xos o'ren egallagan adib, shoir, olim bo'lish bilan birga yirik davlat arbobi va sarkarda hamdir. Bobur keng dunyoqarashi va mukammal aql-zakovati bilan Hindistonda Boburiylar sulolasiga asos solib, bu mamlakat tarixida davlat arbobi sifatida nomi qolgan bo'lsa, serjilo o'zbek tilida yozilgan «Boburnoma» asari bilan jahonning mashhur tarixnavis olimlari qatoridan ham joy oldi. Uning nafis g'azal va ruboilyari turkiy she'riyatining eng nodir durdonalari bo'lib, «Mubayyin» («Bayon etilgan»), «Xatgi Boburiy», «Harb ishi», Aruz haqidagi risolalari esa islom qonunshunosligi, she'riyat va til nazariyasi sohalariga munosib hissa bo'lib qo'shildi.

Zahiriddin Muhammad Bobur 1483 yilning 14 fevralida Andijonda, Farg'onasining hokimi Umar Shayx Mirzo oilasida dunyoga keldi. Bu davrda Markaziy Osiyo va Xurosonda turli hokimlar, aka-ukalar, tog'a-jiyalar, amakivachchalar o'rtasida hokimiyat — ulug' bobolari Amir Temur tuzgan yirik davlatga egalik qilish uchun kurash niyoyat keskinlashgan edi. Adabiyot, nafis san'at, tabiat go'zalligiga yoshligidan mehr qo'ygan Zahiriddin, barcha Temuriy shahzodalar kabi bu ilmlarning asosini otasi saroyida, yetuk ustozlar rahbarligida egalladi. Bobur Hindistonda o'z hukmronligini uzil-kesil o'rnatdi va Boburiylar sulolasini barpo etdi. Bobur Hindistonda siyosiy muhitni barqarorlashtirish, Hindiston yerlarini birlashtirish, shaharlarni obodonlashtirish, savdo-sotiq masalalarini to'g'ri yo'lga qo'yish bog'rog'lar yaratish ishlariga

homiylik qildi. Hindistonni obodonlashtirish, unda hozirgacha mashhur bo‘lgan me’moriy yodgorliklar, bog‘lar, kutubxonalar, karvonsaroylar qurdirish, ayniqsa, uning o‘g‘illari va avlodlari davrida keng miqyosga yoyildi. Hindiston san’ati va me’morchiligiga Markaziy Osiyo uslubining kirib kelishi sezila boshladi. Bobur va uning hukmdor avlodlari huzurida o‘scha davrning ilg‘or va zehni o‘tkir olimlari, shoirlari, musi-qashunoslari, rassomlari, xattotlar va davlat arboblarini mujassam etgan mukammal bir ma’naviy-ruhiy muhit vujudga keldi. Boburiylar davlatidagi madaniy muhitning Hindiston uchun ahamiyati haqida Javaharla’l Neru¹ shunday yozgan edi: «Bobur Hindistonga kelgandan keyin katta siljishlar yuz berdi va yangi rag‘batlantirishlar hayotga, san’atga, arxitekturaga toza havo baxsh etdi, madaniyatning boshqa sohalari esa bir-birlariga tutashib ketdi». Bobur Hindistonda katta hajmdagi davlat ishlari bilan bir qatorda o‘zining adabiy-badiiy faoliyatini ham davom ettirdi va yuqorida zikr etilgan asarlarini yaratdi. Boburning butun jahon ommasiga mashhur bo‘lgan shoh asari «Boburnoma»dir. Ma’lumki, unda Bobur yashagan davr oralig‘ida Mavarounnahr, Xuroson, Eron va Hindiston xalqlari tarixi yoritilgan. Asar asosan uch qismidan iborat bo‘lib, uning birinchi qismi — XV asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyoda ro‘y bergan voqealarni; ikkinchi qismi — XV asrning oxiri va XVI asrning birinchi yarmida Kobul ulusi, ya’ni Afg‘onistonda ro‘y bergan voqealarni; uchinchi qismi — XVI asrning birinchi choragidagi Shimoliy Hindiston xalqlari tarixiga bag‘ishlangan. «Boburnoma»da o‘scha davrning siyosiy voqealari mukammal bayon qilinar ekan, o‘z yurti Farg‘ona viloyatining siyosiy-iqtisodiy ahvoli, uning poytaxti Andijon shahri, Markaziy Osiyoning yirik shaharlari: Samarqand, Buxoro, Qarshi, Shahrabz, O’sh, Urganch, O’ratepa, Termiz va boshqa shaharlар haqida nihoyatda nodir ma’lumotlar keltirilgan. Unda Qobul ulusining yirik shaharlari Qobul, G‘azna va ular ixtiyoridagi ko‘pdan-ko‘p tumanlar, viloyatlar, Shimoliy Hindiston haqida ma’lumotlarni uchratish mumkin. «Boburnoma»ni varaqlarkanmiz, ko‘z oldimizdan Markaziy Osiyo, Afg‘oniston va Hindiston xalqlariga xos bo‘lgan fazilat va nuqsonlar, ularning tafakkur olamini kengligi va murakkabligi bilan birga, o‘scha davrdagi hayot muammolari, Bobur davlatidagi siyosiy va ijtimoiy hayotning to‘liq manzarasi namoyon bo‘ladi. «Boburnoma»da keltirilgan bu tarzdagi ma’lumotlar Muallif «Boburnoma»da Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Behzod, Mirzo Ulug‘bek va boshqa allomalar haqida o‘zining eng yuqori fikr va mulohazalarini bildiradi. «Boburnoma» — Mavarounnahr, Xuroson, Hindiston, Eron xalqlarining XV asr oxiri — XVI asrning birinchi yarmidagi tarixini o‘zida aks eggirgan bo‘lsa ham, shu bilan birga juda ko‘p dolzarb iqtisodiy, ijtimoiy masalalar, yuqorida nomlari keltirilgan viloyatlarning o‘zaro siyosiy-iqtisodiy va savdo munosabatlari, jug‘roffy mavqeい, iqlimi, o‘simlik va hayvonot dunyosi, tog‘lari, daryolari, xalqlari, qabila va elatlari va ularning yashash sharoitlari, urf-odatlari, muhim tarixiy inshootlari — hindular va muslimonlarning ibodatxonalar, to‘y va dafn marosimlari haqida nihoyatda nodir ma’lumotlarni o‘zida qamrab olgan shoh asardir. Shu bois «Boburnoma» tarixiy va adabiy meros sifatida dunyo olimlarini hayratda qoldirib kelmokda.

Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asariga ishlangan miniatyuralar haqida gap borar ekan, Boburiylar hukmronligi (ayniqsa Akbar) davrida Hindistonda shakllangan, G‘arbda "mo‘g‘ullar miniatyurasi" nomi bilan ma’lum bo‘lgan tasviriy san’at yuzaga kelgan. Hirot, Buxoro, Samarqand, Sheraz, Tabriz miniatyura san’atining eng yaxshi an’analarini ijodiy o‘zlashtirib, qadimiy hind tasviriy san’atini dunyoviy mazmun bilan boyitgan Dasvant, Basovan, Us tod Mansur, Mukund, Ramdas, Kesu Gujaroti, Farruxbek Qalmoq, Ibrohim Naqqosh va boshqa musavvirlar o‘scha davrda yaratilgan va ko‘chirilgan bir qator qo‘lyozmalarni — "Boburnoma", "Akbnoma", "Zafarnoma", "Jome attavorix" ("Tarixlar majmuasi") va boshqalarni nafis va jozibador rasmlar bilan bezaganlar. Bizgacha "Boburnoma"ning shu tarzda

¹Javaharla’l Neru Открытие Индии ISBN: 5-250-00853-4: 1989 Язык: Русский Твердый переплет, 968 стр. Тираж: 75000 экз.

bezatilgan nusxalari (8 nusxa to‘liq holda) yetib kelgan: Britaniya muzeyida (Angliya) va Oksforddagi Bodli kutubxonasida, Dexlidagi Milliy muzey va Rojasthon shtatidagi Alvar kutubxonasida (Hindiston), Parij milliy kutubxonasida; shuningdek Moskvadagi Sharq xalqlari san’ati muzeyida, Dublindagi Chester Bitti kutubxonasida (Irlandiya), Parijdagi Luvr muzeyida, AQShning Frir galereyasida, Fogg san’at muzeyida, Kanadaning Ottava shahridagi Milliy galereyada va shaxsiy yig‘imlarda saqlanmoqsa. Rasmlarning asosiy mazmuni tarixiy voqealar, maishiy manzaralar, jang lavhalari, ov va sport o‘yinlari, hayvonot va o‘simplik dunyosi, turli siyosiy voqealar, uchrashuv va boshqalarni tasvirlashdan iborat. Asar mazmuni bilan cheklangan rassomlar barcha tarixiy, geografik, etnografik omillardan foydalangan holda bir butun tugallangan ijodiy mujassamotlar yaratganlar². Rasmlarda sharq san’atidagi shartlilik zaruriyatidan, ko‘p rejali mujassamotlardan mohirona foydalanilgan. Rasm va bo‘yoqlar muvozanatini nozik sezish, ranglarni tanlay bilish, tasvirlanayotgan davr ruhini, go‘zallikni aniqhissiy shakllarda gavdalantirish, imo-ishora, harakatni jonli bera bilish, bo‘yoqdardagi ichki monandlik kabi hind rassomligiga xos xususiyatlar va boshqa jihatidan bu rasmlar g‘oyat katta badiiy qimmatga ega.³ Uzoq yillar davomida G‘arb va Sharqning mashhur sharqshunos olimlari «Boburnoma» mazmunini jahon jamoatchiligiga yetkazish borasida katta faoliyat ko‘rsatdilar. Masalan, gollandiyalik olim Vitsen, angliyalik olimlar J. Leyden, V.Erskin, R.Koldekot, A.Beverej, T.Albot, germaniyalik Yu.Klaynrat va A.Keyzer, frantsiyalik Pave de Kurteyl, hindistonlik Mirzo Nasriddin Haydar Rizvi, turkiyalik R.R.Art va N.I.Bayur va bizning davrimizdagi frantsiyalik olim Bakke Gromon, afg‘onistonlik olim Abulhay Habibiy, pokistonlik olimlar Rashid Axtar, va Shoh Olam Mavliyot shular jumlasidandir.⁴

Ma'lumki, Boburning tarixiy, ilmiy va adabiy merosini o‘rganish va ommalashtirishda respublikamiz rassomlik maktablari, san’at maktablari, umumiyo‘rta maktab, oliy ta’lim professor o‘qituvchilarining faoliyatları ham diqqatga sazovordir. Bu borada Ustoz rassom Malik Nabiyev ijodiy yo‘liga nazar tashlasak, u nafaqat o‘z ovoziga, balki baxtiga ham erishgan ustoz san’atkor darajasiga ko‘tarildi. U tajribali pedagog, uslubiyatchi olim sifatida ham tanildi. Yoshligidan tarixiy mavzularga bo‘lgan qiziqish va harakatlari zoe ketmadi. Vaqtlar o‘tishi bilan rassomning tarixdan hikoya qiluvchi ranglavha, qoramalari va kichik kompozitsiyalari katta-katta polotnolarga aylandi.⁵

Musavvirning ulkan yutuqlaridan yana biri buyuk shoir, adib, faylasuf va davlat arbobi Zahiriddin Bobur obrazidir. Bobur obrazini yaratish uchun rassom Afg‘oniston, Hindiston va boshqa bir qancha xorijiy mamlakatlarda ham bo‘ldi. Bobur yashagan, ijod qilgan, jang qilgan joylarni o‘z ko‘zi bilan ko‘rdi. Malik Nabievning Bobur she’riyati bilan batafsil tanishgani, uning achchiq va sermazmun hayotini mukammal o‘rganganligini, Boburning navqiron va to‘laqonli gavdalantirgan portreti vositasida his etamiz.

Ko‘pdan berikim yoru diyorim yo‘qdir,

Bir lahzau bir nafas qarorim yo‘qdir.

Keldim bu sari o‘z ixtiyorim birla

Lekin borurimda ixtiyorim yo‘qdir.

² Miniatyuri rukopisi "Baburname": (Albom), M., 1960; "Boburnoma" rasmlari: (Albom), T., 1970; Madraimov A., Rasmlarda Bobur hayoti, T., 1983.

³ "Boburnoma rasmlari" O‘zME. B-harfi Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

⁴O‘zbekiston milliy ensiklopediyasining 1–11-jiddlari 2000–2006-yillar Davlat ilmiy nashriyoti

⁵ S.B.Maxkamova “Bo‘lajak Tasviriy san’at o‘qituvchilarini asarlarni badiiy tahlil qilishga o‘rgatish metodikasi” PhD avtoreferati 5 bet T: 2025 yil

Bobur o‘z yurtidan olislarga ketib, ona yurtiga mehru muhabbatini ana shunga o‘xshash izhor qilayotgan holati, rassomning jonli bo‘yoqlarida namoyon bo‘lgan. Xullas, Bobur portretidagi turli hil bo‘yoqlarda aks ettirilgan tuyg‘ular uyg‘unligi butun borlig‘ingizni ranglar sehri bilan qamrab oladi.

San’at ixlosmandlari e’tiborini o‘ziga jalg qilgan Bobur portretida shoh qiyofasida gavdalantirilgan. Boshiga sala kiygan Boburning nigohi bir nuqtaga qaratilgan. Uning jiddiy xayol og‘ushida ekanligi bir qo‘lning iyagi ustiga qo‘yib turganodan sezilib turadi, ulug‘vor fikr bilan bandligidan dalolat beradi. Yuz qiyofasi asosan bug‘doy rang tuslar orqali tasvirlangan. Peshona, yuz qismida paydo bo‘lgan chiznqlar, shuningdek, burun, lab, qulqoq, soqol, mo‘ylov kabi joylaridagi holatlar Boburning yoshi bir oz o‘tganligini ko‘rsatsada, uning tetik va baquvvatliligi saqlanganligi yaqqol sezilib turibdi.

Ayniqsa bu holat yuzda, ko‘zga tashlanayotgani pishiqlik, chayirlikni tasvirlanishida yanada aniqroq ko‘rinadi. Jiddiy fikr va xayol bilan bandligi esa shoirni yanada salobatli qilib ko‘rsatadi. Yelkador, qo‘llari esa bamaylixotir bolishga tayangan holda tasvirlangan. Portretda qo‘l barmoqlari shunday xarakterli tasvirlanganki, bu Boburning mashaqqatli jangu jadallardan mardonavor o‘tganini, o‘tkir qalam sohibi ekanligini yana bir bor tasdiqlab turibdi. Sharqona bezatilgan shoh saroyining bir bo‘lagi, derazadan Hindistonning manzarasi ko‘rinadi. Devordagi fonda naqshin bezaklar, Bobur o‘tigan honaning badiiy boyligi, shuningdek Bobur egnidagi liboslarning o‘ziga xos qimmatbaho ko‘riishiga ega bo‘lishi tomoshabinga zavq ularshadi.



Malik Nabiev buyuk shoir va shoh bolmish Bobur obrazini tasvirlash borasida katta muvaffaqiyatni qo‘lga kiritdi. Boburni ilm, san’at ahillariga homiylik qilgan ma’rifat homiysi ekanini ham ifodalay oldi. Xullas, Malik Nabiev sharqona xarakterga ega bo‘lgan Boburni uzoq va mashaqqatli jangu jadallardan so‘nggi holatdagi obrazini tasvirlashga erishgan.

Kezi kelganda yana bir tarixiy voqeani aytmasdan o‘tib bo‘lmaydi. 1993-yil iyunda ustoz rassom butun ijodiy faoliyati davomida mehnat qilib kelgan Nizomiy nomidagi pedagogika institutining badiiy-grafika fakultetida juda katta yong‘in sodir bo‘ldi. Eng xavflisi shunda ediki, ustoz rassomning shu binodagi ijodxonasida “Sohibqiron Temur”, “Mirzo Bobur”, “Beruniy” kabi shoh asarlari saqlanayotgan edi. Qarangki, yong‘in vaqtida faqatgina shu asarlar turgan xona yong‘indan mutloq zarar ko‘rmagan. Bu ham inson hayotidagi anglash qiyin sirlardan biri bo‘lsa ajab emas!⁶

Rassomning ko‘plab portretlarida buyuk siymolar obrazi zamonaga hamohang darajada gavdalanganligini ko‘ramiz va beixtiyor hayratlanamiz. Amir Temur, Beruniy, Bobur, Ibn Sino, Jomiy va Navoiy, Al Roziy, Rudakiy, Al Xorazmiy kabi bir qancha yirik arboblar, olim, shoir, mutafakkirlarning portretlarining har biri jonli tasvirlangan.

Musavvir Malik Nabievni yurtimizdagi shogirdi ko‘p ustoz, rassomlarning yetakchisi edi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bugun ustozning ishini shogirdlari shijoat bilan davom ettirmoqdalar. Boburning miniatyrada chizilgan portreti (1605—1615 yillarda). Ushbu surat Londondagi Britaniya muzeyida saqlanadi.

Buyuk shoh Bobur Hindistonda temuriylarga xos ulug‘ bunyodkorlik an‘analarini davom ettirdi: muhtasham qasrlar tiklash, ariq-kanallar qazish, bog‘-rog‘lar bunyod etish, adabiyot, ilm-



⁶ N.Talipov bilan bo‘lgan suhbatdan T: 2015 yil “Madaniyat va marifat” telekanali ko‘rsatuvi

fan rivojiga homiylik qilish, elniadolat bilan boshqarish singari fazilatlar keyinchalik Hindistonning buyuk farzandlari tomonidan chinakam ijobiy baholandi. Hindistonning donishmand farzandi, buyuk davlat arbobi Javohirla'l Nehru o'zining "Hindistonning ochilishi" va "Jahon tarixiga bir nazar" asarlarida Zahiriddin Muhammad Bobur haqida samimiyatga to'liq ushbu fikrlarni izhor etgan: "Bobur o'ta madaniyatli va jozibali insonlar orasida eng yetuk insonlardan biri edi. U mazhabparastlik kabi cheklanishdan va mutaassiblikdan yiroq edi... Bobur san'at va, ayniqsa, adabiyotni sevardi"⁷.

Bobur tasviriy san'atga juda qiziqqan, hatto uning sir-sinoatlarini bilishga harakat qilgan. U Behzodni musavvirlar peshvosi sifatida o'ta qadrlaydi, ayni paytda, uning ijodining ayrim mulohazatalab jihatlari ustida to'xtalishni ham lozim topadi: "Musavvirlardan Behzod edi. Musavvirlilik san'atini juda nozik qildi. Biroq soqolsiz kishilarning chehrasini yaxshi ochmaydi: iyagini uzunroq tortadi. Soqolli kishining yuzini qoyilmaqom qilib chizadi".



1992 yil fevralidan ta'sis etilgan Bobur xalqaro xayriya fondi ham Zahiriddin Muhammad Bobur abadiyatini ta'minlashda, Bobur va boburiylar asarlari, tarjimalari va ular haqidagi jahon olimlarining tadqiqotlarini qo'lyozma, toshbosma va tipografik nashrlar holida o'z vataniga — Andijonga olib kelishda ko'plab xayrli ishlarni bajarmoqda. Chunonchi: Andijonda ikkita ko'rakam Bobur haykali o'rnatildi. Haykaltaroshlar Qodirjon Salohiddinov, jaloliddin Mirtojiyevlarning Mirzo Bobur haykali ularning belgili tashrif qog'ozsi sifatida namoyon bo'lib, ularning keyingi ijodiy yuksalishida ko'prik bo'ldi desak mubolaga'a bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Bakhtiyorovna, S. M., Dildora, A., Markhabo, T., & Toshpulatova Sabina, I. Z. (2020). CREATIVITY OF PEOPLE ARTIST GAFUR ABDURAKHMANOV IN THE DEVELOPMENT OF MODERN PAINTING OF UZBEKISTAN. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 8(2)*.
2. Саодат Бахтияровна Махкамова (2023). ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ СПОСОБНОСТИ УЧАЩИХСЯ В ШКОЛЕ И КАК ОНИ ПРОЯВЛЯЮТ СВОИ ТВОРЧЕСКИЕ СПОСОБНОСТИ В ЭТЮДАХ, КОМПОЗИЦИОННЫХ ВАРИАНТАХ, В СВОИХ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ. *Oriental Art and Culture*, 4 (5), 311-326.
3. Makhkamova Saodat Bakhtiyorovna (2024). THE FORMATION OF VISUAL ARTS SKILLS OF SCHOOLCHILDREN IN PERFORMING SKETCH, COMPOSITION AND CREATIVE WORKS. *European Journal of Arts*, (1), 63-66. doi: 10.29013/EJA-24-1-63-66
4. Saodat Baxtiyarovna Makhkamova (2023). THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF COMPOSITION IN THE FINE ARTS IN FORMING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE FINE ARTS TEACHERS. *Oriental Art and Culture*, 4 (2), 720-728.

⁷ [Джавахарлал Неру — биография, книги, отзывы, цитаты](#)